TILSHUNOSLIKDA ALOGIZMGA ASOSLANGAN STILISTIK VOSITALARNING ROLI VA ULARNING MAKTAB DARSLIKLARIGA TATBIQI

Samatova Zulxumor Qudratilla qizi
zulhumorqosimova@gmail.com

Annotation: This article discusses the role of tropes and stylistic figures in forming alogism, citing examples from literature such as George Orwell's "1984" and Lewis Carroll's "Alice in Wonderland." Furthermore, it advocates for incorporating alogism into school curricula, particularly in language and literature classes, to foster creativity, deepen language comprehension, and develop analytical skills in students.
Key words: alogism, paradox, trop, stylistic figures, language, foster creativity, analytical skills.

Tilshunoslikda alogizm hodisasi juda qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib u adabiy va nutqiy uslublarda g‘ayrioddiy yoki paradoksal ifodalash uchun foydalaniladi. Bu hodisa orqali tilning chegaralari va imkoniyatlarini o‘rganish mumkin, shuningdek, ijodkorlik va yangi ifoda uslublarini yaratish imkoniyatlari ham ochiladi.

Alogizm hodisasi nafaqat lingvistik va stilistik jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu tamoyil orqali jamiyatdagi kamchiliklar, qiyinchiliklar va ziddiyatlar ko‘rsatib beriladi, George Orwellning “1984” asarida mavjuda alogizm orqali jamiyatning nazorat va kuzatuv ostida bo‘lishi tanqid qilinadi. [1.304]

Troplar va stilistik figuralar alogizmni shakllantiruvchi uslubiy vositalar hisoblanadi. Trop yunoncha “tropos” so‘zidan olingan bo‘lib, “burilish, ko‘chma obraz” degan ma’noni anglatadi shuning uchun A.A. Potebnya tropni “bezatilgan, ko‘chma nutq" sifatida tushinilishi kerak deydi.[2.344] G.G.Shpetning fikriga ko‘ra “Uslubiy birliklar troplar qatoriga kirish uchun uch mezon bo‘yicha aniqlanishi kerak : 1) belgilik (trop – bu nominat birlik), 2) ikki tomonlama (semantik mezon), 3) dekorativlik (funksional mezon). Troplar til egalari tomonidan nominat birliklarning ichki shaklini bezashga intilishi natijasidir”. [3]

Figura so‘zi yunon tilidan tarjima qilinganda “chizgi”, “oborot”, “tasvir” degan ma’nolarni anglatadi lekin tilshunoslikda figuraning aniq va umumqabul qilingan ta’rifi yo‘q. Figura quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, matnda so‘z birikmasi, gap yoki gaplar guruhining stilistik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos tuzilishi. [4.846] Ikkinchidan, ushbu ushbu stilistik oborotlar hisobiga ifodalilikni kuchaytirish, amaliy zaruriy normalardan chiqib ketish.[5]

T.G.Xazagerov ta’kidlaganidek: “Qadimgi odamlar figuralarni raqs, imo-ishora bilan bog‘lashgan, bu esa hissiyot harakatini soddalashtirilgan va umumiylashtirilgan ravishda ifodalagan".[6.2]

Troplar turli-tuman ko‘rinishga ega bo‘lib, ularda bir narsa belgisi ikkinchi narsaga ko‘chiriladi, o‘xshatiladi. “Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarni shu maqsadda, umuman, ko‘chma ma’noda ishlatishga troplar deyiladi”[6.13]

Stilistik figuralar deb nutq ta’sirchanligini kuchaytirish, tasviriylikni oshirishga xizmat qiluvchi maxsus sintaktik qurilish, nutq ko‘rinishiga aytiladi.[7.40] Stilistik figuralar tinglovchiga ko‘proq emotsional ta’sir ko‘rsatish, gapdan anglashilgan umumiy ma’noni kuchaytirish yoki kamaytirishda sintaktik vosita sifatida ishlatiladi.

Shunday qilib alogizmni shakllantiruvchi uslubiy vositalarga quyidagilar jumladan metafora, metonimya, sinekdoxa, epitet, ironiya, antifraza, perifraza, giperbola, apostrofa, antiteza, oksimoron, gradatsiya, pleonasm va taftalogiya, katahreza, zevgma va sillepsis, gipallaga,

amfiboliya, antifrazis, litota va meosiz, paralepsis, apadozis va apafaziya, paradoks, amfiboliya va perkursiya kiradi.

Alogizm hodisasini nafaqat oliy ta'lim o'qitish va ilmiy ishlar tadqiqot ob'ekti sifatida chuqur o'rganish balki, umumta'lim maktab darsliklariga ham qo'shish qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin, ayniqsa til va adabiyot fanlari bo'yicha. Bu hodisa talabalarga til va adabiyotning g'ayrioddiy va ijodiy tomonlarini o'rganishga yordam beradi. Alogizm orqali o'quvchilar mantiqsiz yoki paradoksal ifodalarni tahlil qilish, ulardan ma'no izlash va tilning cheksiz imkoniyatlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
Maktab darsliklariga alogizm hodisasini qo'shishning ba'zi foydalariga avvalo **ijodkorlikni rivojlantirishni** misol qilishimiz mumkin. Alogizm mantiqsiz va g'ayrioddiy ifodalarni o'z ichiga olganligi sababli, bu o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun: "Alice in Wonderland" asaridagi Alice o'sadigan va kichrayadigan sahna, bu hodisalar fizik va biologik qonunlarga zid keladi. Bu sahna o'quvchilarni fizik dunyo chegaralaridan tashqarida fikrlashga undaydi, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi. Bu o'sish va kichrayishning an'anaviy tushunchalariga qarshi chiqadi va o'quvchilarni oddiydan tashqarida bo'lgan imkoniyatlarni tasavvur qilishga undaydi.

Ikkinchi foydasi til bilimini chuqurlashtirish bo'ladi. Alogizm orqali o'quvchilar tilning oddiy va mantiqli tuzilishlaridan tashqariga chiqib, tilning yanada murakkab va o'ziga xos jihatlarini o'rganishadi. Misol uchun**:** The Mad Hatterning topishmog'i, "Ravenni yozuv stoli bilan nima o'xshash?" mantiqsiz savoli, chunki Carroll hech qachon mantiqiy javob bermaydi. [8.97] Bu topishmoq til va so'z o'yinlaridan foydalanishni namoyish etadi. Bu o'quvchilarni topishmoqning ma'nosini tushunish va mantiqsiz savollar va javoblar tushunchasini anglash bilan tilni o'rganishga undaydi. Bunday topishmoqlar til bilimini chuqurlashtirish va qadrlashga yordam beradi.
O'quvchilarning tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish maktab o'quv materiallariga alogizm hodisanini kiritishning uchunchi foydasi bo'lishi mumkin. Alogizmga duch kelganida, o'quvchilar bu ifodalarning ma'nosini tahlil qilishga va ularning orqasidagi g'oyalarni tushunishga harakat qilishadi. Misol uchun Alice va Cheshire o'rtasidagi suhbatni olaylik:

"Would you tell me, please, which way I ought to go from here?" "That depends a good deal on where you want to get to," said the Cat. "I don't much care where" said Alice. "Then it doesn't matter which way you go," said the Cat. [8.89]

Bu dialog aniq maqsadga ega bo'lish va tanlovlar natijasini tushunishning muhimligini ta'kidlaydi. Bu suhbatni tahlil qilish orqali o'quvchilar yaxshiroq tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.
Bundan tashqari maktablarda alogizmlardan foydalanib til o'rgatishda turli tez aytishlarni yaratish mumkin. Bu usul til o'rganuvchilariga yangi so'zlarni o'rganish, talaffuzni yaxshilash va til qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tez aytishlar so'zlarni tez va to'g'ri talaffuz qilish uchun qiyin bo'lishi kerak, shunda o'rganuvchi tez-tez takrorlash orqali tilni yaxshilaydi. Misol sifatida, quyidagi alogizmni o'z ichiga olgan tez aytishni keltirish mumkin:
"Peter Piper picked a peck of pickled purple penguins, perfectly puzzled by the peculiar peppers." "The blue bluebird blinks at the blueberry blue."
Ushbu tez aytishlarda mantiq buzilgan lekin "p" va "b" tovushlarining takrorlanishi o'quvchilarga ushbu harflarni to'g'ri talaffuz qilishiga yordam beradi, murakkab undosh tovushlar bilan mashq qilishlari va lug'at boyligini qiziqarli usulda oshirishlari mumkin.
Maktabda o'qitiladigan fanlar jumladan ona tili va adabiyoti, rus tili, ingliz tili darsliklariga alogizmni kiritishda, bu mavzuni oddiy va tushunarli qilib tushuntirish, misollar orqali izohlash va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish muhimdir. Bu

mavzu alohida bir bo‘lim sifatida yoki boshqa mavzular bilan bog‘langan holda taqdim etilishini taklif qilamiz.

Adabiyotlar.

1. Carroll L. *Alice in Wonderland*. – Chicago, Illinois: A book Virtual Digital Edition, 2000. – Version 1.2. – 97 p.
2. George Orwell. *1984*. – New York: HarperCollins Publishers, 2013. – 304 p.
3. Крысин Л.П. *Толковый словарь иноязычных слов: около 25 000 слов и словосочетаний*. – Москва: Русский язык, 1998. – 846 с.
4. Квятковский А.П. *Поэтический словарь*. – Москва, 2013.
5. Lapasov J. *Badiiy matn va lisoniy tahlil*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 86 b.
6. Потебня А.А. *Теоретическая поэтика* / сост., вступ. ст., коммент. А.Б. Муратова. – Москва: Высшая школа, 1990. – 344 с. – (Классика литературной науки).
7. Qo‘ng‘urov R. *O‘zbek tilining tasviriy vositalari*. – Toshkent: Fan, 1977. – 13 b.
8. Шпет Г.Г. *Внутренняя форма слова. Этюды и вариации на темы Гумбольдта*. – Москва: Издание Государственной Академии Художественных Наук, 1927.